



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 188 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды	153
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей	157
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	
Artificial Intelligence in Foreign Language Education: Enhancing Critical Thinking and Academic Communication Skills	164
<i>Allamuratov Gofur Ashurovich</i>	
Talabalarning bolalardagi ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish.....	169
<i>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</i>	
Jamoaviy va yakkakurashchi professional sportchilar motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik farqlari	172
<i>Qaimova Gulmira Uchqun qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari.....	176
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso</i>	
Katta guruh tarbiyalanuvchilarida steam kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik va yoshga oid psixologik xususiyatlari.....	179
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna, Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari.....	183
<i>Yakubova Zilola Zikirovna</i>	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARI



Yakubova Zilola Zikirovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
"Maktabgacha talim nazariyasi va metodikasi" o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy tarbiyaga yangicha yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyani uning qalbi va ongiga singdirish, bolalarda axloqiy fazilatlarni samarali shakllantirishning psixologik qonuniyatlarini o'rganish masalalari yoritilgan. Shuningdek, mazkur jarayonda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ular o'rtasidagi ilmiy-metodik hamkorlik va uzviylikni yangi bosqichga ko'tarish hamda tarbiya jarayonining ijtimoiy asoslarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, oila, bolalar, pedagog-tarbiyachi, kitobxonlik, ota-onalar, pedagogik targ'ibot, huquqiy madaniyat, axloqiy tarbiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Abstract: This article discusses a new approach to national upbringing through the implementation of child-centered education in preschool educational organizations. The study examines the psychological mechanisms underlying the effective formation of moral qualities in children and highlights the importance of fully utilizing the socio-pedagogical potential of families and preschool educational institutions. Particular attention is given to strengthening scientific and methodological cooperation and continuity between families and preschool organizations, as well as improving the social foundations of the educational process.

Key words: preschool education, family, children, teacher-educator, reading culture, parents, pedagogical advocacy, legal culture, moral education, learner-centered education.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы внедрения личностно-ориентированного воспитания в деятельность дошкольных образовательных организаций на основе нового подхода к национальному воспитанию. Освещаются психологические закономерности формирования нравственных качеств у детей, а также пути эффективного использования социально-педагогического потенциала семьи и дошкольной образовательной организации. Особое внимание уделяется развитию научно-методического сотрудничества и преемственности между семьей и дошкольными образовательными учреждениями, а также совершенствованию социальных основ воспитательного процесса.

Ключевые слова: дошкольное образование, семья, дети, педагог-воспитатель, книга, родители, педагогическая пропаганда, правовая культура, нравственное воспитание, личностно-ориентированное образование.

KIRISH

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri ma'naviy barkamol, yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash hisoblanadi. Zero, jamiyatning barqaror rivojlanishi inson kapitalining sifati va uning ma'naviy-axloqiy kamoloti bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, Yangi O'zbekistonda barpo etish jarayonida yosh avlodning ma'naviy yetukligi, Vatanga sadoqati va yuksak axloqiy fazilatlarini muhim omil hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar ham aynan barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, bunda maktabgacha ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha yosh davri shaxsning axloqiy, ijtimoiy va ma'naviy sifatlari shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda

bolalarga singdirilgan axloqiy me'yorlar, milliy qadriyatlar va ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari ularning keyingi hayot faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bolalar tarbiyasida milliy an'analar, oilaviy qadriyatlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg'unligidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yosh avlodni axloqiy tarbiyalash muammosi qadimdan faylasuflar, pedagoglar, psixologlar va jamoat arboblarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Turli davrlarda olimlar tomonidan bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishning samarali metod va vositalari ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan. Bugungi kunda ham ushbu masala globallashuv sharoitida o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish masalasi ko'plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

N.M. Egamberdiyeva axloqiy tarbiyada ijtimoiy muhit va pedagogik hamkorlikning ahamiyatini ta'kidlab, bolalarda ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish zarurligini asoslaydi.

Sh.A. Sodiqova maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda o'yin, mehnat va badiiy faoliyatning axloqiy sifatlarini rivojlantirishdagi o'rni yoritadi.

M.Quronov milliy tarbiya konsepsiyasida bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish muhimligini qayd etadi.

Z.Z. Yakubova tadqiqotlarida esa oila, mahalla va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorligi bolalarda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishning muhim omili sifatida e'tirof etilgan.

Shuningdek, L.S. Vygotskiy va J. Piagetning nazariy qarashlari bolalarda axloqiy me'yorlarning shakllanishi ijtimoiy muloqot va faol amaliy tajriba jarayonida yuz berishini ko'rsatadi. Olimlarning ilmiy qarashlari tahlili shuni ko'rsatadiki, axloqiy tarbiya jarayonida oila, ta'lim muassasasi va jamiyatning uzviy hamkorligi hamda tizimli pedagogik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish murakkab va ko'p qirrali pedagogik jarayon bo'lib, u turli metod va vositalar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, o'yin faoliyati, mehnat jarayoni, badiiy ijod, xalq og'zaki ijodi namunalari, ertaklar, hikoyalar hamda kattalarning shaxsiy namunasi axloqiy tarbiyaning samarali vositalari hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya jarayonida bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik, kattalarga hurmat, tengdoshlariga nisbatan do'stona munosabat, mas'uliyat, halollik va mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, bolalarning jamoadagi xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlari va odob-axloq qoidalariga rioya etish ko'nikmalarini rivojlantirish ham axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, axloqiy fazilatlarni shakllantirishda tizimlilik, izchillik va uzviylik tamoyillariga amal qilish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonining barcha subyektlari - pedagoglar, ota-onalar va jamoatchilikning hamkorligi natijasida bolalarda mustahkam axloqiy sifatlar shakllanadi. Axloqiy tarbiyaning barcha yo'nalishlari o'zaro uyg'unlashgan holda tashkil etilganda esa bolalarda yaxlit axloqiy madaniyat va ijtimoiy xulq-atvor kompetensiyalari rivojlanadi.

Axloqiy fazilatlarni shakllantirish uchun bir qancha yondashuvlar qo'llaniladi. Ular o'yin, mehnat, ijod, adabiy asarlar (ertaklar) va shaxsiy namuna orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, axloqiy tarbiyaga har qanday yondashuv uning shakllarining butun majmuasiga ta'sir qiladi. Keling, ularni sanab o'tamiz: vatanparvarlik tuyg'ulari, hokimiyatga munosabat, shaxsiy fazilatlar, jamoadagi munosabatlar, aytilmagan odob-axloq qoidalari.

Agar o'qituvchilar ushbu sohalarning har birida hech bo'lmaganda ozgina ishlasalar, ular allaqachon mustahkam poydevor yaratgan bo'ladilar. Agar butun tarbiya va ta'lim tizimi yagona sxema asosida ish olib borsalar, ko'nikma va bilimlar bir-birining ustiga qatlamlanib, yaxlit sifatlar majmuasini shakllantirgan bo'lar edi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash muammolari bolaning ikki nufuzli tarbiyaviy ta'sir manbai o'rtasida shakllanishi bilan bog'liq. Bir tomondan, ular tarbiyachi, ikkinchi tomondan esa ota-onalardir. Lekin bu masalaning ijobiy tomoni ham mavjud. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ota-onalar birgalikda harakat qilish orqali yuqori natijalarga erishishlari mumkin. Biroq, boshqa tomondan, bolaning hali to'liq shakllanmagan shaxsiyati turli qarama-qarshi ta'sirlar natijasida ikkilanishi mumkin. Shu bilan birga, unutmazlik kerakki, bolalar o'z ustozlari deb bilgan insonlarning xatti-harakatlari va munosabatlarini ongsiz ravishda ko'chirib oladilar. Bunday xatti-harakatlarning eng yuqori darajada namoyon bo'lishi esa dastlabki maktab yillariga to'g'ri keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Axloqiy tarbiya tug'ilishdan boshlanadi va kundalik munosabatlar jarayonida butun hayot davomida davom etadi. Bu atama deganda jamiyat tomonidan "axloqiy" deb e'tirof etiladigan axloqiy tamoyillar, sifatlar hamda xulq-atvor me'yorlarini shakllantirishga qaratilgan shaxsga ta'sirlar tizimi tushuniladi. Axloq tushunchasi xalq



madaniyati, dini va muayyan davr bilan bog'liq bo'lib, u ma'lum tarixiy sharoitlar doirasida shakllanadi. Axloqiy tarbiya shaxs rivojlanishining asosini tashkil etadi.

Shaxsning shakllanishi murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, ota-onalar, ta'lim muassasalari hamda butun jamiyatdan katta e'tibor va sabr-toqatni talab etadi. Axloqiy fazilatlarini singdirishda shaxsning yosh xususiyatlari, uning axborotni qabul qilish, tushunish va to'g'ri qayta ishlash qobiliyati hisobga olinishi zarur.

Axloqiy tarbiya - shaxsni shakllantirishning ko'p qirrali jarayonining eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, u shaxsning axloqiy qadriyatlari va fazilatlarini rivojlantirishga, idealga intilishiga, axloqiy tamoyillar, me'yorlar va qoidalar asosida yashash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda e'tiqod va g'oyalari real harakatlar hamda xatti-harakatlarda o'z ifodasini topishi lozim. O'sib borayotgan avlodni har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash zamonaviy jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir.

Axloqiy tarbiyaning maqsadi ta'lim faoliyatining butun mazmuni orqali amalga oshiriladi. Bu ta'lim subyekti va obyekti o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar jarayonidir. Ta'lim faoliyatining o'zi axloqiy me'yorlarni shaxsning ichki e'tiqodiga, xatti-harakatlarga bo'lgan munosabatiga aylantirish jarayonini o'z ichiga oladi. Tarbiyachi esa o'ziga xos pedagogik ta'sir vositalari yordamida jamiyatning shaxsga ta'sirini amalga oshiruvchi "hammuallif" va "ta'minlovchi" sifatida faoliyat yuritadi.

Yosh avlodni tarbiyalashda milliy-ma'naviy qadriyatlar juda katta tarbiyaviy kuchga ega. Ularga sodiqlik bizning milliy birlik sifatida jahon miqyosidagi betakrorligimizni ta'minlaydi. Tilimiz, urf-odatlarimiz, an'ana va udumlarimiz shunchaki o'tmishdan qolgan meros emas, balki o'zligimizni anglashning muhim shartidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy va axloqiy tarbiyasi nafaqat boshqa insonlar bilan muloqot qilishga, balki turli mintaqaviy muammolarni hal etishga ham asoslanadi. Ularning yordamida bola o'zini anglashni, o'z harakatlariga tashqi tomondan baho berishni, shuningdek, boshqa insonlarning xatti-harakatlarini tushunish va talqin qilishni o'rganadi. Pedagoglarning asosiy maqsadi bolalarda o'z his-tuyg'ularini va boshqalarning hissiyotlarini tushunish qobiliyatini rivojlantirishdan iboratdir.

Tarbiyaning ijtimoiy jihati bolaning tengdoshlari bilan birgalikda rivojlanishning barcha bosqichlarini bosib o'tishida namoyon bo'ladi. Bola tengdoshlarining va o'zining yutuqlarini ko'rishi, ularga hamdard bo'lishi, qo'llab-quvvatlashi hamda sog'lom raqobat muhitini his qilishi zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning asosiy vositalari tarbiyachining kuzatuvlariga asoslanadi. U ma'lum bir davr mobaynida bolaning xatti-harakatlarini tahlil qilishi, ijobiy va salbiy tendensiyalarni qayd etishi hamda bu haqda ota-onalarga ma'lumot berishi kerak. Buni to'g'ri va pedagogik jihatdan maqbul usulda amalga oshirish juda muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning maqsadlari:

- biror narsa haqida turli odatlar, fazilatlar va tasavvurlarni shakllantirish;
- tabiatga va atrofdagilarga nisbatan insonparvar munosabatni tarbiyalash;
- vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va o'z mamlakatidan faxrlanish hissini rivojlantirish;
- boshqa millat vakillariga nisbatan bag'rikeng munosabatni tarbiyalash;
- jamoada samarali faoliyat yuritishga imkon beradigan muloqot ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'z-o'zini baholashning adekvat darajasini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun axloqiy tarbiya dasturlari o'ziga, atrofdagi insonlarga va tabiatga nisbatan uyg'un munosabatni rivojlantirishni nazarda tutadi. Shaxsning axloqiy sifatlarini ushbu sohalarining faqat bittasida rivojlantirish mumkin emas, aks holda u jiddiy ichki qarama-qarshiliklarni boshdan kechiradi va oxir-oqibat ma'lum bir yo'nalishga og'ib ketadi.

Zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimi bolalarda o'z yurtiga va atrof-muhitga nisbatan mas'uliyat hissini tarbiyalashni muhim vazifa sifatida belgilaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama axloqiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni ushbu jihatsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ko'rinib turibdiki, kelajakda insoniyatning yashab qolish masalasi ko'p jihatdan insonning milliy-axloqiylik darajasiga bog'liqdir. Shu bois, milliy-axloqiy tarbiya pog'onadorligiga alohida e'tibor berish va uni yuksaltirish masalasi dolzarb ahamiyatga egadir. Zero, muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Shu bois, "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik va axloqiy fazilatlarni shakllantirish o'ta sharafli vazifadir".

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi. Mazkur jarayonda milliy qadriyatlar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda ta'lim-tarbiyaning uzviyligi asosida tashkil etilgan faoliyat bolalarning axloqiy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2020-yil 24-yanvar) [Elektron resurs]. - Kirish rejimi: <https://president.uz/uz/> (murojaat qilingan sana: 05.06.2026).
2. Quronov M., To'raev Sh. va boshq. Milliy tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish: o'quv qo'llanma. - Toshkent: Muharrir, 2017. - 18 b.t.
3. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika: darslik. - Toshkent, 2009.
4. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: Tafakkur sarchashmalari, 2013.
5. Yakubova Z.Z. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning rivojlanishi va tarbiyasiga professional yordam ko'rsatishda oila, mahalla va maktab bilan hamkorlik ishlari // International Conferences. - 2022. - Vol. 1. - No. 8. - B. 68-73.
6. Yakubova Z.Z. Milliy tarbiya asosida bola shaxsini rivojlantirishda oila, mahalla va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorligi // Golden Brain. - 2023. - T. 1. - № 15. - B. 141-147.
7. Yakubova Z.Z. National Values of Preschool Children Basically Forming Educational and Moral Qualities // European International Journal of Pedagogics. - 2023. - Vol. 3. - No. 01. - P. 51-55.
8. Zikirovna Y.Z. Ma'naviy qadriyatlar - sog'lom avlodni tarbiyalash vositasi sifatida // Science and Innovation. - 2023. - B. 208-210.
9. Sadikova S.N. Types and Content of Picture Activity in Preschool Educational Organizations // Science and Innovation. - 2022. - B. 760-764.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.